SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 9 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)

**Сайт:** https://scienceproblems.uz

**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 9 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

## 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Matajonov Rahimjon Akramovich*
“VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI ........ 10-16

*Облобердиев Жасурбек Косим угли*
МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ ........ 17-22


## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Турсунов Бекмухаммад Омонович*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ ........ 23-34

*Курпаяниди Константин Иванович*
ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ ........ 35-44

*Ahmedov Shohjaxon*
O‘ZBEKISTONDA CHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ........ 45-51

*Кулибоев Азамат Шоназарович*
БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 52-62

*Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА АХБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ ........ 63-73

*Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*
TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 74-80

*Davronov Istamxo‘ja Olimovich*
MEHMONXONA XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGI VA SIFATINI BAHOLASH USULLARI ........ 81-86

*Маматов Бахадир Сафаралиевич*
ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ ........ 87-96

*Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли*
КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ ........ 97-104

*Баратов Махсудали Назиралиевич*
МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ........ 105-116

*Ergashev Islom Ismoilovich*
KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI ........ 117-127

*Қодиров Азизжон Анварович*
ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ ........ 128-136

*Эшонкулов Акмал Кудратович*
ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 137-142

*Астанов Шерзод Рустамович*
ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИҲАЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 143-150

## ***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Abdullayev Ibodulla Abdullayevich*
YOSHLARNI MILLIY G‘URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI ........ 151-155

*Turabova Sevara Kattaqulovna*
BAHS–MUNOZARALARDA QO‘LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR ........ 156-164

*Alimatova Nargis Abduxalilovna*
BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI ........ 165-174

*Allayarova Marhabo Mavlonovna*
UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI ........ 175-179

*Рахманов Баҳодир*
СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 180-186

*Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich*
ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA’MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI ........ 187-191

*Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich*
JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ........ 192-197

*Azimov Ashirali Mehmonboyevich*
XOTIN-QIZLAR GENDER MA’RIFATINING IJTIMOIY BARQARORLIKKA TA’SIRI ........ 198-202

*Azimov Sherzod*
PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY ........ 203-207

*Абдурахмонович Хасан Иброхимович*
ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 208-216

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi*
QUMAN TOPISHMOQLARINING OʻZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI .......... 217-223

*Тешабаева Дилфуза Муминовна, Абдухалилова Гулбаҳор Карабаевна*
ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА ЯСАЛИШИ .......... 224-230

*Abdinazarov Uktam Qushoqovich*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI.. 231-236

*Axmedova Shaxodat Maxmutovna*
OʻZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI.......... 237-241

*Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich*
JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI .......... 242-246

*Vositov Otabek Toxirjonovich*
TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA’NOSI VA LEKSIK SEMANTIK GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI .......... 247-253

*Нодир Раҳматуллаев*
НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ .......... 254-260

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Мамасобиров Давронбек Эрназарович*
ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ .......... 261-270

*Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o’g’li*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI .......... 271-276

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*
OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH .......... 277-281

*Umarova Zaxro Abduraxim qizi*
TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH (THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI .......... 282-287

*Kadirov Ramz Turabovich*
TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KOʻNIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEXNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI MASHGʻULOTLAR MISOLIDA) .......... 288-295

*Khabiba Madaminovna Jurabekova*
THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS .......... 296-302

*Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich*
KLASTERLI OʻZARO TAʼSIR SHAROITIDA INFORMATIKA OʻQITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH MASALALARI ........ 303-310

*Ergashev Murodbek Ikromovich*
MUSIQA TAʼLIMIDA OʻQUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI ........ 311-316

*Utkirov Nusrat Kamilovich*
BOʻLAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TAʼMINOTINI RIVOJLANTIRISH ........ 317-322

*Yulbarsova Xurshida*
BOʻLAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK JIHATLARI ........ 323-329

*Baychayev Fazliddin Xusenovich*
BOʻLAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH ........ 330-335

*Muminov Ulmas Ravshanqulovich*
OʻZBEKISTONDA “MAHALLA INSTITUTI” NING MAHALLIY OʻZ-OʻZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI ........ 336-341

*Tajibayeva Maʼmura Tojidinovna*
AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TAʼLIMOTLARINI OʼRGANISH ASOSIDA TALABALARDA GʼOYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH ........ 342-346

*Askarova Zulayxo*
BOSHLANGʻICH TAʼLIM JARAYONIDA OʻQUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI ........ 347-352

*Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi*
EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS ........ 352-362

*Jumaniyazova Goʻzal*
OLIY OʻQUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YOʻNALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA OʻRGATISH METODIKASI ........ 363-367

*Хусаинова Лейла Юнусова*
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ ........ 368-373

*Xudayberganov Gʻayrat Quranboyevich*
MATEMATIK KREATIV TAVSIFDAGI MASALALARNING BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOGʻLAB SHAKLLANTIRISHDAGI OʻRNI VA ROLI ........ 374-379

*Toʻxtasinov Muhammadjon*
PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING OʻRNI ........ 380-384

*Eshnazarov Murod Karimovich*
GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA`LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI ........................................ 385-391

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 9 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*07.00.00-Тарих фанлари*

**Mamajonov Rahimjon Akramovich**
Farg'ona davlat universiteti,
katta o'qituvchi

# "VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O'RNI VA ROLI" MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI

**Annotatsiya.** Mazkur Arab xalifaligi istilosiga qarshi kurash olib borgan milliy yetakchilar tarixiga bag'ishlangan ingliz tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlar haqidagi ayrim fikr-mulohazalar va tahlillar ilgari surilgan. Jumladan, I.Kristofer Bekvit, A.R.Gibb, R.N.Fray, S.Vayting Marvin, G.R.Havting, V.L.Novak, M.D.Luse, P.B.Golden, Sharon Moshe, D.Elton, A.H.Jangebe B.Xoberman, G.R.Xoyland, B.Jonatan va Xyu Kennedi kabi tadqiqotchilar asarlarining mazmuni hamda ulardagi e'tiborga molik fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar**: I.Kristofer Bekvit, A.R.Gibb, R.N.Fray, S.Vayting Marvin, G.R.Havting, V.L.Novak, M.D.Luse, P.B.Golden, Sharon Moshe, D.Elton, A.H.Jangebe B.Xoberman, G.R.Xoyland, B.Jonatan, Xyu Kennedi.

**Mamajonov Rahimjon Akramovich**
Fergana State University
Senior Teacher

# ANALYSIS OF ENGLISH LANGUAGE RESEARCH ON THE SUBJECT: "THE ROLE OF LOCAL RULER IN THE STRUGGLE AGAINST ARAB CALIPHATE COINATION IN VII-VIII CENTURIES"

**Abstract.** This article presents some opinions and analyzes about the scientific literature created in English, dedicated to the history of national leaders who fought against the occupation of the Arab caliphate. Including I. Christopher Beckwith, A. R. Gibb, R. N. Fry, S. Whiting Marvin, G. R. Hawting, W. L. Novak, M. D. Luse, P. B. Golden, Sharon Moshe, D. Elton, A. H. Jangebe, B. Hoberman, G. R. Hoyland, B. Jonathan, The contents of Hugh Kennedy's works and their notable ideas are presented.

**Key words:** I. Christopher Beckwith, A. R. Gibb, R. N. Fry, S. Whiting Marvin, G. R. Hawting, W. L. Novak, M. D. Luse, P. B. Golden, Sharon Moshe, D. Elton, A. H. Jangebe, B. Hoberman, G. R. Hoyland, B. Jonathan, Hugh Kennedy.

**Мамажанов Рахимжон Акрамович**
Ферганский государственный университет,
Старший преподаватель

# АНАЛИЗ АНГЛОЯЗЫКОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ТЕМЕ «МЕСТО И РОЛЬ МЕСТНЫХ ПРАВИТЕЛЕЙ В БОРЬБЕ ПРОТИВ АРАБСКОГО ХАЛИФАТА В VII-VIII ВЕКАХ»

**Аннотация.** В данной статье представлены некоторые мнения и анализы научной литературы, созданной на английском языке, посвященной истории национальных лидеров, боровшихся против оккупации Арабского халифата. В том числе И. Кристофер Беквит, А. Р. Гибб, Р. Н. Фрай, С. Уайтинг Марвин, Г. Р. Хоутинг, У. Л. Новак, М. Д. Люс, П. Б. Голден, Шэрон Моше, Д. Элтон, А. Х. Джангебе, Б. Хоберман, Г. Р. Хойланд, Б. Джонатан, Представлено содержание произведений Хью Кеннеди и их примечательные идеи.

**Ключевые слова:** И. Кристофер Беквит, А. Р. Гибб, Р. Н. Фрай, С. Уайтинг Марвин, Г. Р. Хоутинг, В. Л. Новак, М. Д. Люс, П. Б. Голден, Шэрон Моше, Д. Элтон, А. Х. Джангебе, Б. Хоберман, Г. Р. Хойланд, Б. Джонатан, Хью Кеннеди.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N01

**Kirish.** Tarixiy shaxslar faoliyatiga baho berishda ular yashagan davr, siyosiy sharoit, ijtimoiy voqeliklarga xolis yondashish talab etiladi. Bu esa oʻsha shaxsga nisbatan jamoatchilikda toʻgʻri fikr shakllanishiga xizmat qiladi.

Tariximizda munosib iz qoldirgan siymolarni oʻrganish boy tarixiy merosga ega xalqimizning oʻzligini anglashiga hissa boʻlib qoʻshiladi.

Garchi qadimidan bugunga qadar boʻlgan voqeliklar ilmiy adabiyotlar, badiiy asarlar va hattoki darsliklarda oʻz oʻrnini topayotgan boʻlsa-da, oldinda qilinadigan ishlar behisobdir. Jumladan tarixiy siymolarning hayoti va faoliyatini yoritish, tarixiy jarayonlardagi oʻrniga baho berish, yutuqlarini oʻrganish va kamchiliklaridan xulosalar chiqarish hozirgi kunimiz uchun muhim ahamiyat ega.

Mazkur davrda roʻy bergan arab istilosi bilan bogʻliq voqealarning bevosita ishtirokchilari: Sugʻd ixshidlari (Tarxun, Gʻurak, Panj hokimi Devashtich), Buxoro xudotlari (Bidun, Qabaj-xotun, Tugʻshoda), Nasaf va Kesh (Vik, Ashkand, Ixrid, Taran), Choch (Bahadur tutun, Inay tudun), Ustrushona (Satachari II, Satachari III, Qorabugʻa, Xonqora) yo boʻlmasa Fargʻona hukmdorlari (Alutar, Arslon tarxon) haqida hali hanuz yetarlicha tasavvurga ega emasmiz. Hozirda bu shaxslarning tarixiy oʻrnini belgilash, ularning mavqeyini koʻrsatib berish ham ilmiy, ham mafkuraviy jihatdan zarurdir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Hozirgi kunga qadar jahon tarixshunosligida va mamlakatimizda Markaziy Osiyo tarixi toʻgʻrisida salmoqli ilmiy asarlar yaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda Oʻrta Osiyo tarixining ayrim jihatlari xususida jiddiy mulohazalar uchraydi. Ularni geografik hamda davriy jihatdan 3 guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlar; 2) Rossiya imperiyasi va sovet davrida yaratilgan ilmiy asarlar; 3) mustaqillik yillarida nashr etilgan tadqiqotlar.

Turli mamlakatlar olimlari qalamiga mansub, Oʻrta Osiyo tarixiga oid baʼzi maʼlumotlar uchraydi [1–19]. Oʻrta Osiyoning ilk oʻrta asrlar davri tarixiga oid xorijiy mamlakatlarda yaratilgan tadqiqotlarda alohida fikr va mulohazalar bildirilmagan. Shunga qaramay, Fransiya, Rossiya, Yevropa, Amerika, Turkiya, Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida eʼlon qilingan ilmiy ishlarda bizni qiziqtirgan muammo doirasidagi baʼzi eʼtiborga loyiq fikrlar bayon etilgan.

Oʻrta Osiyoning ilk oʻrta asrlar davri tarixini oʻrganishda ingliz tilida yaratilgan tadqiqotlarning alohida oʻrni bor. Ingliz tilida I.Kristofer Bekvit, A.R.Gibb, R.N.Fray, S.Vayting Marvin, G.R.Havting, V.L.Novak, M.D.Luse, P.B.Golden, Sharon Moshe, D.Elton, A.H.Jangebe B.Xoberman, G.R.Xoyland, B.Jonatan va Xyu Kennedi kabi tadqiqotchilar izlanishlar olib borishgan [15-16, 20-30].

**Natijalar va muhokama.** Oʻrta Osiyoning ilk oʻrta asrlar davri tarixini oʻrganishda Amerikalik olim I.Kristofer Bekvitning asarlari alohida oʻrin tutadi. Uning ijodi “The Tibetan

Empire in Central Asia", "Medieval Tibeto-Burman Languages", "Koguryo, the Language of Japan's Continental Relatives", "Phoronyms: Classifiers, Class Nouns, and the Pseudopartitive Construction", "Warriors of the Cloisters: The Central Asian Origins of Science in the Medieval World", "Empires of the Silk Road: A History of Central Eurasia from the Bronze Age to the Present", "Greek Buddha: Pyrrho's Encounter with Early Buddhism in Central Asia" asarlaridan iborat.

I.Kristofer Bekvit lingvist boʻlganligi uchun arab-fors, xitoy, yapon va hind tillarini yaxshi oʻzlashtirgan. Aynan shu holat uning asarlari ilmiy qiymati yuqorigiligini ta'minlaydi. Olim oʻz asarlarini yozishda "The Tibetan empire in Central Asia: a history of the struggle for great power among tibetians, Turks, Arabs and Chinese during tre early middle ages" ва "Empires of the Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present)" asarlarini yozishda arab-fors va xitoy tillaridagi manbalardan hamda tibet hujjatlaridan foydalanadi [15–16].

I.Kristofer Bekvitning 1993 yilda nashrdan chiqqan "The Tibetan empire in Central Asia: a history of the struggle for great power among tibetans, turks, arabs and Chinese during tre Early middle ages" [15: 281] ("Markaziy Osiyodagi Tibet imperiyasi: Oʻrta asrlardagi tibetliklar, turklar, arablar va xitoyliklar oʻrtasida buyuk kuch uchun kurash tarixi") nomli asarida ham Fargʻonaning turklar va arablar davridagi Xitoy bilan aloqalari toʻgʻrisida hikoya qilinadi. Unda 717 yilning avgust oyida Fargʻona mojarosi sabab Oqsuv (Aksu) hududida sodir boʻlgan Tang imperiyasi va Arab xalifaligi oʻrtasidagi "Oqsuv jangi" toʻgʻrisida ma'lumot beriladi [15: 88-89-б]. Muallif keltirgan ma'lumotlarning ishonchliligi ancha yuqori, chunki u oʻz ishida arab, xitoy manbalaridan hamda turli davrlardagi tarixshunoslik va manbashunoslik tadqiqotlaridan unumli foydalangan.

Uning "Empires of the Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present)" ("Ipak yoʻli imperiyalari (Yevroosiyo markazi bronza davridan bugungacha)") nomli monografiyasida ham Oʻrta Osiyo, jumladan, Fargʻona arablar, turklar, xitoyliklar va tibetliklar manfaati toʻqnashgan hudud sifatida tasvirlanadi [16: 133].

Movarounnahrning xalifalik tomonidan egallanishi masalasiga yevropalik tadqiqotchilar birinchilardan boʻlib oʻz e'tiborlarini qaratishgan. Jumladan, A.R.Gibb [20: 29-98] Movarounnahrda Arab xalifaligining harbiy yurishlari va antiarab koalitsiyasining faoliyatlariga alohida toʻxtalgan. R.N.Fray numizmatik materiallar asosida [21: 34-41] Movarounnahrdagi xalifalik siyosatini oʻrgangan.

Arablarning Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan istilochilik yurishlari haqida dastlabki ingliz tilidagi asarlardan biri A.R.Gibbning "The Arab conquests in Central Asia" tadqiqotidir [20]. Ushbu asarning birinchi loyihasi 1921-yil dekabr oyida London universitetiga "Arablarning Transoksaniyani bosib olishi" nomi ostida san'at magistri ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya sifatida taqdim etilgan va 1922 yil yanvarda Senat tomonidan tasdiqlangan. U Oʻrta Osiyodagi arablar bosqini haqida toʻliq tarixiy ma'lumotlarni taqdim etishga da'vo qilmaydi, balki faqat shu paytgacha qilinganidan koʻra batafsilroq tanqidiy oʻrganish uchun moʻljallangan. Nashr qilish narxini pasaytirish uchun dastlab matnga qoʻshilgan keng koʻlamli havolalar har bir bobning oxirida bir nechta eslatmalarga qisqartirilgan. Aksariyat hollarda, Tabariy yoki Balazuriyning tegishli joyidan osongina topish mumkin boʻlsa, boshqa oʻrinlarda hech qanday havola berilmaydi [20: 29-98].

Chet ellik tadqiqotchilardan ingliz islomshunosi G.R.Havting umaviylar boshqaruvini sulolaviy ahamiyatiga doir boʻlgan oʻz asarini nashr ettirgan [22: 105-108]. Ingliz tarixchisi V.L.Novak esa umaviylarga qarshi guruh va muxolifatlar, xususan, “xorijiylar” va Xoris ibn Surayj [23: 90-133] toʻgʻrisida, M.D.Luse Movarounnahrda xalifalik maʼmuriyati tomonidan olib borilgan soliq siyosati [24: 34-51], P.B.Golden [25: 160-166] Arab xalifaligi kuchlariga qarshi Movarounnahrdagi voha hukmdorliklari va turklar ittifoqchiligini keltirib oʻtishadi.

Ingliz tarixchisi V.L.Novak “The Delineation Between Believer, Rebel, and Heretic: Islamic Heterodoxy in the Late Umayyad Period” nomli tadqiqotida ikki ilk islom bid'atchilari al-Horis ibn Surayj va Jahm ibn Safvonni oʻrganish orqali soʻnggi Umaviylar davrida islom kontekstida pravoslavlik va bid'at tushunchasini oʻrganadi. Bu harakatlar chekka oʻlkalardagi milliy ozodlik harakatiga koʻrsatgan taʼsiri, xalifalikning roli va umaviylar maʼmuriyatining tanazzulga uchrashi bu davrda bid'atchilarning ahvoli va ularning qoralanishi haqida maʼlumot beradi. Tadqiqotchi at-Tabariyning “Tarix” va al-Balazuriyning “Ansob al-Ashrof” asarlaridan foydalanib, islom ortodoksalligini asta-sekin kodifikatsiya qilish bilan oʻsib borayotgan islom heterodoksiyasining qiyin sharoitlarini yoritadi [23: 90-133].

Shuningdek, Sharon Moshe [26: 261-323], A.H.Jangebe [28: 5] tadqiqotlarida ham Arab xalifaligida abbosiylarga qarshi vujudga kelgan muxolifat doirasida Movarounnahrdagi siyosiy jarayonlar oʻrganilgan. Talas jangi va Xitoyning Movarounnahrdagi magʻlubiyati xususida B.Xoberman [29: 26-31], G.R.Xoyland [31: 148-151, 163-169, 181-195, 201-205], B.Jonatan [32: 42-44] kabi tadqiqotchilar izlanishlar olib borishgan.

Britaniyalik oʻrta asrlar tarixchisi hisoblangan Xyu Kennedi oʻzining “Великие арабские завоевания” [30] (“Arablarning buyuk istilolari”) nomli monografiyasida Qutayba ibn Muslim (86-96 / 705-715), Nasr ibn Sayyorning (121-131 / 739-748) Oʻrta Osiyoga, jumladan Fargʻonaga amalga oshirgan harbiy yurishlari, Talos jangi (751) va ularning oqibatlari toʻgʻrisida maʼlumot beradi. Qutayba ibn Muslim yurishlari vaqtida Sugʻd ixshidi Gurak, Panjikent hokimi Divashtich va Fargʻona hukmdori Alutarning qarshilik harakati bayon qilinadi. Tarixchi asarda keltirilgan maʼlumotlar qaysi manbadan olinganligi toʻgʻrisida havolalar keltirilmaydi. Shunga qaramasdan maʼlumotlar mazmunidan uning faqat arab manbalaridan foydalanganligini xulosa qilishimiz mumkin.

S.Vayting Marvin tomonidan 2002-yil Nyu-York Yorkda nashr etilgan “Imperial Chinese military history: 8000 BC – 1912 AD” [27] nomli monografiyasida VIII asr birinchi yarmida Tang imperiyasi va Fargʻona davlati oʻrtasida oʻzaro aloqalar toʻgʻrisida hikoya qilinadi. Uning asarida keltirilishicha, Alutar 715-yilda arablar yordami bilan taxtga kelgan [27: 276]. S.Vayting Marvin oʻz asarida keltirgan maʼlumotlarni asoslashda birorta ham asar yoki manbadan havolalar keltirmaydi. Shuning uchun, uning fikrlari bahs talab hisoblanadi.

XX asr oxirlarida yaratilgan ingliz tilli tadqiqotlar orasida Xolid Yaxyo Blenkinshipning “The End of the Jihâd State : The Reign of Hisham Ibn Àbd AlMalik and the Collapse of the Umayyads” (Jihod davlatining tugashi: Hishom ibn Abdulmalik hukmronligi va Umaviylarning yemirilishi) asari alohida ajralib turadi. Asarda milodiy 623-yilda boshlangan ilmiy adabiyotlarda “Jihod davlati” deya atalgan va 750-yilgacha davom etgan jarayon – arablarning islomlashtirish niqobi ostida olib borgan dastlab lokal keyinchalik esa xalqaro miqyosdagi istilolari davriy ketma-ketlikda hikoya qilinadi [33: X]. Movarounnahrga keng koʻlamli harbiy harakatlar xalifalikning uchinchi kengayish davrida sodir boʻladi. 73-99/692-718 yillarda Shimoliy Afrika, Ispaniya, Movarounnahr va Sindning bosib olinishiga guvoh boʻlamiz. Bu safar

musulmon ekspansiyasi ichki ixtilof emas, balki vizantiyaliklar tomonidan Konstantinopolda yetkazilgan 98-99/717-18 tashqi mag'lubiyati bilan toʻxtatildi. 99-101/718-20 yillardagi keyingi tanaffus xalifa Umar II tomonidan ushbu mag'lubiyatni hisobga olgan holda harbiy harakatlarni ixtiyoriy ravishda toʻxtatishdan iborat edi [33: 19]. Asarda Movarounnahr Abbosiylar oʻz hokimiyati asos qilib olgan oʻlka urf-odatlarini saqlab qolganligi tufayli xalifalik yurishlari haqida eng yaxshi maʼlumotga ega boʻlgan jabha ekanligi taʼkidlanadi. Shu bilan birga muallif tomonidan Movarounnahrdagi harbiy harakatlar maʼlumotlarining nisbatan koʻpligi bu eng xavfli front boʻlganligini anglatmasligi keltiriladi [33: 125].

Shunday boʻlsa-da, Movarounnahr jabhasida Hishom boshchiligidagi musulmon qoʻshinlari uchun jiddiy sinov paydo boʻldi. Yazid II davrida, Movarounnahrdagi yangi musulmonlarga jizyani qaytarishga urinishlar mahalliy aholining g'azabini shu qadar g'azablantirdiki, ularning baʼzilari musulmon hukumatiga qarshi isyon koʻtardilar. Garchi bular shiddatli yurishlar natijasida barbod boʻlgan boʻlsa-da, movarounnahrliklar ham xalifalikdan oʻzlarini himoya qilish uchun Turkash xoqoniga murojaat qilishadi [33: 125-126]. Asarda Turkash xoqoni va umaviylar oʻrtasidagi qarama-qarshilik mavzusiga alohida oʻrin ajratilgan. Xazarlarning sharqida musulmonlar boshqa turk davlati – Turkash xoqonligi bilan toʻqnash kelishdi. Biroq, Turkashlar podsholigida shaharlar yoʻqligi uchun Xazar xoqonligidan ham kamroq oʻtroq davlat hisoblangan va uning qoʻshinlari Oʻrta Osiyoning odatiy koʻchmanchi kuchlariga tegishli, oʻta harakatchan va himoya qilish uchun aniq nishonga ega boʻlmagan. Xitoy manbalarida ikki yuz-uch yuz ming jangchi boʻlgan deb eʼtirof etilgan boʻlsa-da, bu biroz mubolagʻa, Turgʻeshlarning kuchi sonidan koʻra koʻproq harakatchanligi va jangovar fazilatlarida edi [33: 109]. Albatta, movarounnahrliklar arablarga qarshi kurashda umuviy-turkash nizolaridan unumli foydalanishgan hamda bu asarda oʻz aksini topgan [33: 109].

709-710-yillarda Oʻrta Osiyoni umaviylar tomonidan bosib olinishiga qarshi chiqishga uringan Tarxon Tirek/Nizakning shaxsi allaqachon tadqiqot obyekti boʻlib kelgan, ammo aksariyat tadqiqotchilar Tabariyning zamondoshi Ibn Aʼsam al-Kufiyning "Kitob al-futfuh" asari arabcha qoʻlyozmasida keltirilgan maʼlumotlardan foydalana olmagan. E.Esinning “Tarkhan Nīzak or Tarkhan Tirek? An Enquiry concerning the Prince of Badhghīs Who in A. H. 91/A. D. 709-710 Opposed the 'Omayyad Conquest of Central Asia” nomli maqolasida [34: 323-332] Tarxon Tirek/Nizakka oid oldingi xulosalarni al-Kufiyning mulohazalari asosida qayta baholashga harakat qilingan. Tarxon Tirek/Nizak unvonini bir necha kishi, ehtimol, ikkitasi bor edi. Olimning fikricha, bular eftaliy shahzodalar emas, balki Toxaristondagi turk yabgʻularining vassallari boʻlgan tarxon tirek mansabdorlari turkash amaldor shaxslari boʻlgan [34: 323].

Nizak Tarxon faoliyati haqida maʼlumot bergan tadqiqotchilardan biri Hudodod Rizoxoniy hisoblanadi. Hudodod Rizoxoniyning katta hajmdagi “From the Kushans to the Western Turks” nomli maqolasida taʼkidlanishicha, Tangshu boʻyicha Jibin yoki Kobul ustidan hukmronlik qiladigan sulolaning oʻn ikkinchi qiroli deb daʼvo qilgan Xedzieji ismli qirol kamida 661-yilgacha Nezakshohlar mustaqil ravishda faoliyat olib borgan. Zabuliston ustidan hukmronlik qilgan Nezak tarmogʻi, ehtimol, turkiy hukmronlikka berilgunga qadar kech Nezak davri bilan bir xil davrda saqlanib qolgan. Nezak sulolosining mahalliy tabiati va ularning alxonlar bilan aloqasi ularning turkiy hukmronligi ostida va hatto turkiy hokimiyat qulagandan keyin ham mahalliy boshqaruvchi sifatida saqlanib qolganligini anglatadi [36: 211].

Eftaliylarning avlodi hisoblangan, arablarga qarshi kurashda muhim oʻrin tutgan Nizak Tarxon faoliyati arab-fors va xitoy manbalari orqali maʼlum maʼnoda oʻrganilgan. Ammo Nizak

Tarxonning bir yoki ikkita shaxs boʻlganligiga olimlar hali ham aniq xulosa bera olishgani yoʻq. Nizak Tarxon faoliyatini xitoy manbalari orqali tadqiq etgan olimlardan biri Minoru Inaba hisoblanadi. M.Inaba oʻzining “Nezak in Chinese sources” (Nizak xitoy manbalarida) nomli maqolasida uning faoliyatiga va kelib chiqishiga oid xitoy manbalarini tizimlashtirib tahlil etadi [35: 191]. M.Inaba xulosa sifatida Nizak Tarxon mahalliy sulola lekin eftaliy unvoni berilgan boʻlishi mumkinligini taʼkidlaydi [35: 200]. Albatta faqatgina xitoy manbalari orqaligina Nizak Tarxon faoliyati hamda kelib chiqishi yuzasidan aniq xulosa qilish qiyin masala. Chunki bu masalaga oid arab manbalari ham salmoqlidir.

Nyu York universitetida faoliyat olib borgan Soʻren Srak “The Arab Conquest of Bukhārā: Reconsidering Qutayba b. Muslim’s Campaigns 87–90 H/706–709 CE” nomli maqolasida Qutayba ibn Muslimning istilochilik faoliyati, arablarning Buxorodagi yurishlari mintaqaning tarixiy topografiyasi kontekstida qayta koʻrib chiqadi. U ushbu yurishlar davomida voqealar rivojini yangi, ammo yanada izchil qayta qurishni taklif qiladi. Natijada paydo boʻlgan yangi maqolada, Movarounnahrni zabt etishning birinchi qadami arab qoʻshinlari uchun qanchalik qiyin boʻlganini va mahalliy yetakchilarning arablarga qarshi kurashi hikoya qilinadi.

**Xulosa.** Oʻrta Osiyoning ilk oʻrta asrlar tarixi, xususan, mintaqaning Arab xalifaligiga boʻysunishi ingliz tarixshunosligida har tomonlama oʻrganilib, tadqiq etilgan. Sharq tillari boʻyicha yetuk mutaxassis hisoblangan ingliz sharqshunoslari va ingliz tilida ijod qilgan olimlar tomonidan olib borilgan ishlar Oʻrta Osiyodagi arab istilolarini oʻrganishda muhim rol oʻynaydi, chunki tadqiqot ishlari va adabiyotlarning aksariyati ular tomonidan yozilgan hamda nashr etilgan.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Али-заде А.А. Хроники мусульманских государств I–VII веков хиджры. Изд. 2/е, испр. и доп. – Москва: Умма, 2004. – 445 с
2. Алмас Т. Уйгуры. Кн.2. – Алма-Ата, 1994. – 351 с.
3. Большаков О.Г. История Халифата. Т.IV. Апогей и паденгие. – Москва: Восточная литература РАН, 2010. – 369 с.
4. Брыкина Г.А., Горбунова Н.Г. Фергана / Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. Под общей редакцией академика Б.А.Рыбакова. – Москва: Наука, 1999. – 380 с.
5. Велльхаузен Ю. Арабский халифат. Золотой век ислама / Пер. с англ. Т.М.Шуликовой. – Москва: Центрполиграф, 2018. – 176 с.
6. Караев О.К. Арабские источники / Источниковедение Кыргызстана (с древности до конца XIX в.) – Бишкек: Илим, 2004. – 102 с.
7. Кеннеди Х. Великие арабские завоевания / Хью Кеннеди: пер. с англ. Г.Соловьевой. – Москва: АСТ, 2010. – 475 с.
8. Кожа М. Походы арабов в районы Ферганы, Чача и Средней Сырдарьи в VIII веке // Материалы и исследования по археологии Кыргызстана. Вып. 4. – Бишкек: Илим, 2009. – С. 97–103.
9. Курбанов А. Эфталиты (очерки истории). – Санкт-Петербург: Европейский дом, 2006. – 152 с.
10. Ливщиц В. А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – Санк-Петрбург, 2008. – 238 с.
11. Роберт Ч. Истер. Буддизм. Путь к нирване. В кн. Религиозные традиции мира. – Бишкек, 1997. – 248 с.

12. Фильштинский И.М. Халифат под властью династии Омайядов (661–750). – Москва: Соверо-принт, 2005. – 232 с.
13. Фильштинский И.М. История арабов и халифата (750–1517). – Москва: Восток-Запад, 2006. – 350 с.
14. Bai Shouyi. A history of Chinese Muslim. Vol. 2. Beijing: Zhongua Book Company, 2002.
15. Christopher I. Beckwith. The Tibetan empire in Central Asia: a history of the struggle for great power among tibetians, Turks, Arabs and Chinese during tre early middle ages. – New Jersey: Prinseton university press, 1993. – 281 p.
16. Christopher I. Beckwith. Empires of the Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present). – New Jersey: Prinseton university press, 2009. – 499 p.
17. D`herbelot M.B. Bibliotheque oriental ov dictionaire universel. – Paris: Compagnie des Libra`res, 1777. – 1078 p.
18. Enoki K. On the Nationality of the Ephtalites // Memoirs of the Research Department of the Toyo Bunko, 1959. №18. – P. 1–59.
19. Enoki K. The origin of the white or Heptalites // EW. 1955. Vol. VI. – P. 232–236.
20. Gibb H.A.R. The Arab conquests in Central Asia. – London, 1923
21. Frye R.N. Notes on the early coinage of Transoxania. – New York, 1949
22. Hawting G.R. The First Dynasty of Islam The Umayyad Caliphate (661-750). – New York: Taylor & Francis, 2002
23. Novak V.L. The delineation between believer, rebel, and heretic: islamic heterodoxy in the late umayyad period. – Maryland: Advisory Committee, 2012
24. Luce M.D. Frontier as process: Umayyad Khurāsān. – Chicago: Illinois, 2009
25. Golden P.B. Türk halklari tarihine giriş / çeviren O. Karatay. – Çorum, 2006
26. Moshe Sh. Revolt: The Social and Military Aspects of the ʿAbbāsid revolution. – Jerusalem: Graph Press, 1990
27. Marvin C Whiting. Imperial Chinese military history: 8000 BC – 1912 AD. New York: Writes club press, 2002
28. Jangebe H.A. Abu Muslim Al-Khurasani: The Legendary Hero of Abbasid Propaganda // Journal of humanities and social science. Volume 19, Issue 1, Ver. III, 2014
29. Hoberman B. The battle of Talas // Saudi Aramco World, September / October 1982 Hoyland R.G. In God's Path: The Arab Conquests and the Creation of an Islamic Empire. – New York: Oxford University Press, 2015
30. Кеннеди Х. Великие арабские завоевания / Хью Кеннеди; пер. с англ. Г. Соловьевой. – М.: АСТ, 2010
31. Hoyland R.G. In God's Path: The Arab Conquests and the Creation of an Islamic Empire. – New York: Oxford University Press, 2015
32. Jonathan B.M. Paper Before Print: The History and Impact of Paper in the Islamic World. – Singapore: CS Graphics, 2001
33. Blankinship, Khalid Yahya. The End of the Jihâd State : The Reign of Hisham Ibn Àbd AlMalik and the Collapse of the Umayyads SUNY Series in Medieval Middle East History. State University of New York Press. 1994.
34. Inaba, Minoru "Nezak in Chinese Sources". Coins, Art and Chronology II: The First Millennium C.E. in the Indo-Iranian Borderlands. 2010. – P. 191-202.
35. Esin E. Tarkhan Nīzak or Tarkhan Tirek? An Enquiry concerning the Prince of Badhghīs Who in A. H. 91/A. D. 709-710 Opposed the 'Omayyad Conquest of Central Asia // Journal of the American Oriental Society, Vol. 97, No. 3 (Jul. - Sep., 1977), pp. 323- 332.
36. Rezakhani Kh. From the Kushans to the Western Turks. In King of the Seven Climes. A History of the Ancient Iranian World (3000 BCE – 651 CE), (Ancient Iran Series 4), ed. T. Daryaee, 2017. 199–214.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).